

КОВРАК (*FERULA*)- ТАБІҮ ШИФОВАХШ О'СИМЛИКНИНГ

БИОЛОГИК ХУСУСИYАTLARI VA АНАМІYATI

КОВРАК (*ФЕРУЛА*) - БИОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА И
ЗНАЧЕНИЕ ПРИРОДНОГО ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯBIOLOGICAL PROPERTIES AND SIGNIFICANCE OF *FERULA* - A
NATURAL MEDICINAL PLANT

Yursunova O‘g‘iloy Mamitali qizi

Farg‘ona Davlat Universiteti

biologiya yo’nalishi 2- bosqich talabasi

Annotation

Ibn Sino tavsiyalariga ko‘ra, kovrak urug‘ining qaynatmasi 3 mahal 50 grammdan ichilsa, ona suti ko‘payadi. Shirasiga anjir qo‘shib yeyilsa, sariq (gepatit) kasalligini tuzatadi. Yelimiga murch, sirka qo‘shib, yomon sifatli yaralarga surilsa, foyda qiladi. Soch to‘kilihiga ham o‘ta foydalidir. Ma'lumki dunyo miqyosida farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 50% dorivor o’simliklar xomashyosidan tayyorlanmoqdan. Ushbu maqolada Kovrak (*Ferula*) o’simligining dorivorlik xususiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: to‘pgul, poya, ziradoshlar, barg, gul, ildiz, meva, endemik, emulsiya, smola, xalq tabobati, shira, yelim.

Аннотация

Согласно рекомендациям Ибн Сино, отвар семян коврака, принимаемый три раза в день по 50 грамм, увеличивает выработку грудного молока. Если его сок принимать с инжиром, он помогает при лечении желтухи (гепатита). Смола, смешанная с перцем и уксусом, может быть нанесена на плохие раны и приносит пользу. Она также очень эффективна для предотвращения выпадения волос. Известно, что примерно 50% препаратов, производимых фармацевтическими



компаниями по всему миру, изготавливаются из сырья лекарственных растений. В данной статье представлены данные о лечебных свойствах растения коврак (*Ferula*).

Ключевые слова: соцветие, стебель, зонтичные растения, лист, цветок, корень, плод, эндемик, эмульсия, смола, народная медицина, сок, смола.

Annotation

According to Ibn Sina's recommendations, a decoction of the kovrak seeds taken three times a day, 50 grams each, increases breast milk production. If its juice is consumed with figs, it helps treat jaundice (hepatitis). The resin, mixed with pepper and vinegar, can be applied to low-quality wounds and is beneficial. It is also highly effective for hair loss. It is known that about 50% of the medicines produced by pharmaceutical companies worldwide are derived from medicinal plant raw materials. This article provides information about the medicinal properties of the Kovrak (*Ferula*) plant.

Keywords: inflorescence, stem, umbelliferous plants, leaf, flower, root, fruit, endemic, emulsion, resin, folk medicine, juice, resin.

Kirish

Kovrak (*Ferula*)- yer yuzida 160 dan ziyod turlari, O'rta Osiyo Respublikalarida 104, mamlakatimizda esa 45turi uchraydi. Smola - yelim olishda sassiq kovrak, Ko'xiston kovragi kabi turilari ishlatiladi. Kovrak Respublikamizning Toshkent, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining qumli cho'llar, adirlar, tog'lar va tog'oldi yalangliklarda, soz tuproqli yerlarda o'sadi. Tabiatda sassiq kovrak (*Ferula assa-foetida L.*) keng tarqalgan bo'lib, yelim-smola asosan shu turdan olinadi. Bu dorivor o'simlik xalq tabobatida bemor organizmiga ijobiy ta'sir etuvchi biologik faol modda hisoblanadi. Dorivor vositalar sifatida o'simliklarning ildizi, bargi, po'stlog'i, guli, mevasi, shirasi va boshqa qismlaridan foydalaniladi.

BOTANIK TAVSIFI

Kovrak (Ferula) — ziradoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t. O‘zbekistonda 45 turi o‘sadi. Sassiq kovrakning bo‘yi 1 m atrofida, ildizi sholg‘omsimon bo‘lib, diametri 15 sm. Poyasi tik o‘sadi, yo‘g‘on, ichi kovak, yuqori qismi shoxlangan bo‘ladi. Ildizoldi barglari bandli, 3 bo‘lakli, poyadagilari maydaroq, ketma- ket joylashgan. To‘pguli yirik, sharsimon, diametri 20 sm, yon to‘pgullari maydaroq. Erta bahorda gullaydi (1- rasm). Mevasi — ikki bo‘lakli. cho‘llarda o‘sadi. Bu turlar asosan O‘rta yer dengizi havzasi va Markaziy Osiyo kabi quruq iqlimli hududlarda tarqalgan. O‘zbekistonda Ferula turkum turlarining taxminan 45 turi uchraydi, shulardan 5 turi endemik hisoblanadi (faqat shu hududga xos).



1- rasm O‘simlikning ayni gullagan vaqt. (Andijon “Imom ota” hududi)

DORIVORLIK XUSUSIYATI

Mutaxassislar tomonidan ma’lum qilinishicha, kovrakning yelim-smolasi xalq tabobatida o‘pka sili, o‘lat, zaxm, ko‘k-yo‘tal, tish og‘rig‘i, asab va boshqa kasalliklarni davolash uchun, hamda quvvat beruvchi, balg‘am ko‘chiruvchi va gjija haydovchi dori sifatida qo‘llaniladi. Ilmiy meditsinada kovrak yelim-smolasi - “assafetida” nomi bilan kukun, emulsiya va tindirma (nastoyka) holida og‘riq qoldiruvchi, balg‘am ko‘chiruvchi, quvvat beruvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida

ishlatiladi va ko‘pgina davlatlar farmokopeyasiga kiritilgan. Tomog‘i og‘rib, ovozi bo‘g‘ilib qolgan insonlar kavrak yelimini suvgaga qo‘sib ichsa, xastalik darhol chekinadi. Tanada paydo bo‘lgan yaralarni kavrak yelimiga murch va sirka aralashtirilib surtib davolash mumkin. Sharq mamlakatlarida Eron, Pokiston, Afg‘oniston va Hindiston kovrak shirasi va ildizi oziq-ovqat sanoatida ziravor sifatida, kosmetika sanoatida attorlik vositalari ishlab chiqarishda ishlatiladi.

XULOSA

Kovrak (*Ferula*) tibbiyotda va iqtisodiyotda katta ahamiyatga ega o‘simlikdir. Uning turli biologik xususiyatlari, og‘riq qoldiruvchi va sedativ ta’sirlardan tortib, antioksidant faoliyatlargacha, uning an’anaviy va zamonaviy tibbiyotdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Davomiy tadqiqotlar va barqaror amaliyotlar o‘simlikning imkoniyatlarini to‘liq amalgalash oshirish va uning tabiiy yashash muhitlarini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov V. Shomahmudov A. “Xalq tabobati va Zamonaviy ilmiy tibda qo‘llaniladigan shifobaxsh o‘simliklar” Toshkent, “Ibn Sino” NMB, 1993-yil.
2. Nabihev M. “Shifobaxsh ne’matlar” Toshkent. 1994-yil.
3. Xojimatov Q. Ollayorov K. “Ozbekistonning shifobaxsh o‘simliklari va ularni muhofaza etish” Toshkent “Fan” 1990-yil.
4. Xolmatov X.X. Qosimov A.1. “Dorivor o‘simliklar”, “Ibn Sino” 1994-yil.
- .